



ISSN: 2181-0796

DOI: 10.26739/2181-0796

www.tadqiqot.uz

**TIL, TA'LIM, TARJIMA
XALQARO JURNALI**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД**

**INTERNATIONAL JOURNAL OF
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION**



Alisher Navoi



**VOLUME 5
ISSUE 1**

2024

TIL, TA'LIM, TARJIMA

1-SON, 5-JILD

ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД

НОМЕР-1, ВЫПУСК-5

LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

VOLUME-5, ISSUE-1



TOSHKENT-2024

TIL, TA'LIM, TARJIMA XALQARO JURNALI

№1 (2024) DOI

Bosh muharrir:

Mirzayev Ibodulla
f.f.d., professor (O'zbekiston)

Bosh muharrir o'rinbosari:

Ismoilov Salohiddin
f.f.n., professor (O'zbekiston)

TAHRIR HAY'ATI:

Bakirov Poyon f.f.d., professor (O'zbekiston)	Qulmamatov Do'smamat f.f.d., professor (O'zbekiston)
Boqiyeva Gulandom f.f.d., professor (O'zbekiston)	Rasulov Ravshanxo'ja f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dadaboyev Hamidulla f.f.d., professor (O'zbekiston)	Safarov Shahriyor f.f.d., professor (O'zbekiston)
Eltazarov Jo'liboy f.f.d., professor (O'zbekiston)	Shahobiddinova Shohida f.f.d., professor (O'zbekiston)
Isakova Nodira PhD, dotsent (O'zbekiston)	Sobiroy Anvar PhD (O'zbekiston)
Kiselyov Dmitriy f.f.d., professor (O'zbekiston)	Tagayeva Sayyora PhD, dotsent (O'zbekiston)
Labib Said Mohammad Alem f.f.d., dotsent (Afghanistan)	Ubaydullayeva Maftuna PhD, dotsent (O'zbekiston)
Mamatov Abdi f.f.d., professor (O'zbekiston)	Uluqov Nosirjon f.f.d., professor (O'zbekiston)
Mirzayev Rahmatulla huquqshunos, dotsent (O'zbekiston)	Umurqulov Bekpo'lat f.f.d., professor (O'zbekiston)
Mirzohidova Muyassar f.f.d., professor (Qirg'iziston)	Xasanov Axmad mas'ul kotib, PhD (O'zbekiston)
Nadim Mohammad Humoyun PhD (Afghanistan)	Xayrullayev Xurshid f.f.d., professor (O'zbekiston)
Pardayev Azamat f.f.d., professor (O'zbekiston)	Yo'ldoshev Qozoqboy p.f.d., professor (O'zbekiston)
Qodirova Barno kotib, PhD, dotsent (O'zbekiston)	

ILMIY MASLAHAT KENGASHI:

Abdiyev Murodqosim f.f.d., professor (O'zbekiston)	Suvonova Nigorabonu f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Baqoyeva Muhabbat f.f.d., professor (O'zbekiston)	To'xtasinov Ilhom p.f.d. (O'zbekiston)
Berdaliyev Abduvali f.f.d., professor (Tojikiston)	Yoqubov Jmoliddin f.f.d., professor (O'zbekiston)
Jabborov Xo'jamurod f.f.d., dotsent (O'zbekiston)	
Karimov Suyun f.f.d., professor (O'zbekiston)	
Mamatov Abdug'ofur f.f.d., professor (O'zbekiston)	
Mo'minov Siddiq f.f.d., professor (O'zbekiston)	
Raximov G'anisher f.f.d., professor (O'zbekiston)	
Sayfullayeva Ra'no f.f.d., professor (O'zbekiston)	

Sahifalovchi: Shakhram Fayziev

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;

Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;

Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД

№1 (2024) DOI

Главный редактор:

Мирзаев Ибадулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Исмаилов Салахиддин
к.ф.н., доцент (Узбекистан)

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бакиров Поён д.ф.н., профессор (Узбекистан)	Кулмаматов Дусмамат д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бакиева Гуландом д.ф.н., профессор (Узбекистан)	Расулов Равшанхужа д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Далабаев Хамидулла д.ф.н., профессор (Узбекистан)	Сафаров Шахриёр д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Элтазаров Жулибай д.ф.н., профессор (Узбекистан)	Шахабиддинова Шахида д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Исакова Нодира PhD, доцент (Узбекистан)	Собиров Анвар PhD (Узбекистан)
Киселев Дмитрий д.ф.н., профессор (Узбекистан)	Тагаева Сайёра PhD, доцент (Узбекистан)
Лабиб Саид Моҳаммад Алем д.ф.н., доцент (Афғонистон)	Убайдуллаева Мафтуна PhD, доцент (Узбекистан)
Маматов Абди д.ф.н., профессор (Узбекистан)	Улуков Насиржан д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мирзаев Раҳматулла юрист, доцент (Узбекистан)	Умуркулов Бекпулат д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мирзахидова Муяссар д.ф.н., профессор (Киргизистан)	Хасанов Ахмал отв. секретарь PhD (Узбекистан)
Надим Моҳаммад Хумоюн PhD (Афғонистон)	Хайруллаев Хуршид д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Пардаев Азамат д.ф.н., профессор (Узбекистан)	Йулдашев Казакбай д.п.н., профессор (Узбекистан)
Кадирова Барно секретарь, PhD, доцент (Узбекистан)	

НАУЧНЫЙ СОВЕТ:

Абдиев Мурадқасим д.ф.н., профессор (Узбекистан)	Сувонова Нигорабону к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бакоева Мухаббат д.ф.н., профессор (Узбекистан)	Тухтасинов Илхам д.п.н., профессор (Узбекистан)
Бердалиев Абдували д.ф.н., профессор (Таджикистан)	Якубов Жамалиддин д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Жаббаров Хужамурал д.ф.н., доцент (Узбекистан)	
Каримов Суюн д.ф.н., профессор (Узбекистан)	
Маматов Абдугафур д.ф.н., профессор (Узбекистан)	
Муминов Сиддик д.ф.н., профессор (Узбекистан)	
Рахимов Ганишер д.ф.н., профессор (Узбекистан)	
Сайфуллаева Раъно д.ф.н., профессор (Узбекистан)	

Вёрстка: Шахрам Файзиев

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;

Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;

Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000

INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

№1 (2024) DOI

Chief Editor:

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien.,
prof. (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

Ismailov Salokhiddin
Cand. of phil. sciences, assistant
professor (Uzbekistan)

EDITORIAL BOARD:

Bakirov Poyon Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)	Kulmamatov Dusmamat Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Bakieva Gulandom Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)	Rasulov Ravshankhuja Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Dadaboev Khamidulla Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)	Safarov Shakhriyor Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Eltazarov Juliboy Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)	Shakhobiddinova Shokhida Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Isakova Nodira PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)	Sobirov Anvar PhD (Uzbekistan)
Kiselyov Dmitriy Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)	Tagayeva Sayyora PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)
Habib Said Mohammad Alem doc. of phil. scien. (Afg'oniston)	Ubaydullayeva Maftuna PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)
Mamatov Abdi Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)	Ulukov Nosirjon Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Mirzaev Rahmatulla lawyer, assoc. prof. (Uzbekistan)	Umurkulov Bekpulat Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Mirzokhidova Muyassar Doc. of phil. scien., prof. (Kirghizistan)	Hasanov Ahmad senior secretary, PhD (Uzbekistan)
Nadim Mohammad Humoyun PhD (Afg'oniston)	Hayrullaev Hurshid Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Pardaev Azamat Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)	Yuldashev Kazakbay Doc. of ped. scien., prof. (Uzbekistan)
Kadirova Barno Secretary, PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)	

SCIENTIFIC ADVISORY COUNCIL:

Abdiev Murodkosim Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)	Suvonova Nigorabonu Cand. of phil. sciences, assoc. prof. (Uzbekistan)
Bakaeva Mukhabbat Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)	Tukhtasinov Ilhom doc. of ped. scien. (Uzbekistan)
Berdaliev Abduvali Doc. of phil. scien., prof. (Tajikistan)	Yakubov Jamoliddin Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Jabborov Khojamurod Doc. of phil. scien., assoc. prof. (Uzbekistan)	
Karimov Suyun Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)	
Mamatov Abdugafur Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)	
Muminov Siddik Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)	
Rakhimov Ganisher Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)	
Sayfullaeva Rano Doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)	

Pagemaker: Shakhram Fayziev

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;

Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;

Email: info@tadqiqot.uz Тел: (+998-94) 404-0000

MUNDARIJA\СОДЕРЖАНИЕ\CONTENT

T I L S H U N O S L I K

1.R.Rasulov	
Kauzativ munosabatning fe'llarda ifodalanishi.....	7
2. X.Xayrullayev, R.Rustamov	
Matn tahlilidanaive, kmp va bm algoritmlarining ishlash prinsipi xususida.....	21
3. F.Usmenov	
Lingvomadaniy kod konseptlarni tavsiflash usuli sifatida.....	30
4. Д.Юлдашева	
Америка тилшунослиги тарихи ва тараққиёти.....	39
5. M.Ataniyazova	
Matn va tahlil - ta'limning asosi.....	48
6. Д.Мирзаева	
Проявление графической асимметрии на парадигматическом аспекте.....	57
7. F.Yakubov	
Kognitiv - diskursiv tahlil usullari.....	65
8.D.Axmedova	
Ingliz va o'zbek tillarida oksyumoronning qo'llanilishi bo'yicha ayrim mulohazalar.....	74
9. Sh.Jumaeva	
The importance of social media in language learning.....	83
10. R.Nabiyeva	
Hozirgi jonli so'zlashuv tilidagi oziq-ovqat nomlari yangi o'zlashmalarining qo'llanilish ko'lamini.....	89
11.Z.Xamrayeva	
Murakkab sintaktik qurilma va period tushunchalari qiyosiy tahlili (ingliz tili materiali asosida).....	98
12. D.Khudoyarova	
Language learning through the cultural aspects.....	107

T A' L I M S H U N O S L I K

13 M.Xalova	
Mumtoz adabiyotda ayol ijodkorligi fenomeni.....	113
14. X.Suyunova, H.Suyunov	
The main stages of integrative education.....	122
15. M.Xamidova	
O'zbek va jahon bolalar adabiyotida glyuttonik fantaziya va didaktika.....	130

T A R J I M A S H U N O S L I K

16. S.Rasulova	
Vashington Irving nasriy asarlari.....	140
17. G.Qurbonova	
Uilson Roulsning "Where the red fern grows" asari xususida.....	150

TIL, TA'LIM, TARJIMA ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

TILSHUNOSLIK

Rasulov Ravshanxo'ja
professor, filologiya fanlari doktori
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Toshkent, O'zbekiston
rasulovravshanxo'ja@gmail.com

KAUZATIV MUNOSABATNING FE'LLARDA IFODALANISHI

ANNOTATSIYA

O'zbek tilidagi fe'llar - holat fe'llari, asosan, o'timsizligi bilan alohida semantik maydonni hosil qiladi. Ayni vaqtda holat fe'llarining o'timli turlari ham bo'lib, ular ushbu xususiyatiga ko'ra obyekt aktantiga ega bo'ladi. O'timli holat fe'llarining obyekt ishtirokchisi asosida kauzativ munosabat hosil bo'ladi.

Kauzativ munosabat tilda - nutqda bir necha usulda ifodalanadi. Bular: 1.Semantik kauzativ. 2. Morfologik kauzativ. Ushbu kuzatuvlar o'zbek tilidagi "davomli", "harakat natijasi", "ijro", "holat", "obrazli", "biologik", "fiziologik" va "psixik" integral semali holat fe'llarida kuzatiladi.

Kalit so'zlar: holat fe'llari, o'timlilik, obyekt, kauzativ munosabat, semantik kauzativ, morfologik kauzativ, nisbat, orttirma nisbat.

Rasulov Ravshankhoja
professor, doctor of philological sciences
Chirchik State Pedagogical University
Tashkent, Uzbekistan

EXPRESSING CAUSATIVE RELATIONSHIPS IN VERBS

ABSTRACT

Verbs - verbs of state in the Uzbek language are distinguished not only by typical intransitivity, but also by transitivity, and have peculiar semantic features. It is for this reason, i.e. transitivity, that they have an object actant. This actant of transitive state verbs contributes to the manifestation of causative relations.

Causative attitudes in speech are expressed in several ways. 1.Semantic causative. 2.Morphological causative. These causatives are observed in state verbs with integral semes "duration", "result of action", "execution", "movement", "imagery", "biological",

"physiological" and "mental".

Keywords: stative verbs, transitivity, object, causative relations, semantic causative, morphological causative, voice, forced voice.

Расулов Равшанходжа

профессор, доктор филологических наук

Чирчикский государственный педагогический университет

Ташкент, Узбекистан

rasulovravshankhoja@gmail.com

ВЫРАЖЕНИЕ ПРИЧИННО-СВЯЗИ В ГЛАГОЛАХ

АННОТАЦИЯ

Глаголы - глаголы состояния в узбекском языке отличаются не только типичной непереходностью, но и переходностью, и имеют своеобразные семантические особенности. Именно по этой причине т.е. переходностью они обладают объектным актантом. Данный актант переходных глаголов состояния способствует проявлению каузативных отношений.

Каузативные отношения в речи выражаются несколькими способами. 1. Семантический каузатив. 2. Морфологический каузатив. Эти каузативы наблюдаются в глаголах состояния с интегральными семами "продолжительность", "результат действия", "исполнения", "движение" "образность", "биологическое", "физиологическое" и "психическое".

Ключевые слова: глаголы состояния, переходность, объект, каузативные отношения, семантический каузатив, морфологический каузатив, залог, пунудительный залог.

Kauzatsiya sabab - natija munosabatini ifodalashi ma'lum. Bizningcha, bu kauzatsiyani keng ma'noda tushunishdan kelib chiqadi. Aslida kauzatsiya termini "sabab", "sababli" degan ma'nonigina anglatadi [1]. Uning semantik strukturasida natija ma'nosi yo'q. Ammo kauzatsiya (sabab) mantiqiy aloqasiga ko'ra natija (yoki oqibat) bilan to'g'ridan to'g'ri, bevosita bog'lanadi. Chunki sabab va natija dialektik birlikda, bog'liqlikda kuzatiladi. Sabab deyilganda, sezgi a'zolari bilan muayyan obyekt sifatida qabul qilinuvchi natijaning asosi, manbasi - uning yuzaga kelishida vosita bo'lgan predmet, voqea-hodisa tushuniladi. Shu jihatdan u (sabab) natija bilan bevosita, mantiqan, zaruran bog'lanib, sabab - natija jarayonini o'z ichiga oladi. Demak, bu 1) kauzatsiyaning ma'lum bir hodisa bilan bevosita bog'lanishini, ya'ni ushbu so'z muayyan voqea-hodisaning yuzaga kelish manbaini, sababini ifodalasa, 2) qayd etilgan hodisa natija sifatida sabasiz sodir bo'lmasligini, sabab va natija o'zaro qonuniy bog'liqligini, natija sababning mantiqiy davomi bo'lib kelishini anglatadi.

Kauzatsiya va o'timlilik predmetlar orasidagi munosabatdan, ta'sir qiluvchi bilan ta'sirlanuvchi predmetlarning mavjudligidan, ularning o'zaro aloqasidan hosil bo'ladi. Kauzativ munosabatda obyekt (patsiens) agens (subyekt) ta'sirida holatni o'ziga oladi [2], holatlashadi. Muayyan holatdagi obyekt natija sifatida kuzatiladi. Kauzatsiya subyekt, obyekt va holat komponentlariga ega bo'ladi. Ular orasidagi mantiqiy aloqa obyektning holatga ega bo'lishida subyekt ta'siri - kauzatsiya vositasining (subyektining) faolligi (ekstralingvistik faktorlarning, faktitivlikning mavjudligi) kabilar kauzativ munosabat uchun zaruriy, doimiydir.

Kauzatsiya ham, o'timlilik ham o'zbek tilidagi holat fe'llari semantik tuzilishi uchun tipik emas. Bu, yuqorida aytilganidek, holat fe'llarining asosan o'timsizligidan kelib

chiqadi.

Kauzativ munosabatning tildagi (nutqdagi) ifodasi uning lisoniy birliklarda reallashishi bo'lib, u (kauzativ munosabat) nutqda bir necha usulda ifodalanadi.

O'zbek tilidagi holat fe'llari kauzativlik munosabatining asosan quyidagi ko'rinishlariga ega: 1. Semantik kauzativ. 2. Morfologik kauzativ.

Semantik kauzativ. Semantik kauzativ ma'noli holat fe'llarining xarakterli xususiyati shundaki, bular nutqdan tashqarida (tilda), qurshovsiz olinganda ham, nutqda, qurshovli holda ham, ma'nosida kauzativ munosabat ifoda etadi. Kauzativ ma'noli holat fe'llari til birligi sifatida olinganda, ulardagi kauzativ munosabatni bildiruvchi elementlar ongimizda mavjud bo'lib, ular potensial imkoniyat tarzida saqlanadi. Kauzativ ma'noli holat fe'llari nutqda nutq birligi sifatida kuzatilganda, ular kauzativ munosabatni bevosita tashkil qiluvchilarning mavjudligi, alohida lisoniy ifodaga ega ekanligi bilan xarakterlanadi.

Kauzativ holat fe'llari ma'nosidagi holat mantiqan, bevosita muayyan obyekt - patsiens bilan bog'lanadi. Bunda fe'ldagi holatni o'zida tashuvchi patsiens bo'lib, u holat fe'li ma'nosining doimiy moddiy komponenti bilan bog'liqdir.

Kauzativ fe'l, odatda, o'timli bo'ladi[3]. Ammo o'timli fe'l hamma vaqt ham kauzativ ma'noga ega bo'lavermaydi[4]. Kauzativ ma'noli bo'lmagan o'timli holat fe'llarida o'timlilik obyekt bilan bog'lanib, holatning obyektga munosabati bilan tugallansa (masalan, qo'riqlamoq, poylamoq), kauzativ ma'noli holat fe'llarida (asramoq, saqlamoq) patsiensning subyekt - agens ta'sirida muayyan holatga o'tishi, holatli bo'lishi natija sifatida voqelashadi. Chunki uni (obyektni) shu holatga o'tkazgan subyektning roli, aktiv faoliyati sabab sifatida izohlanadi va bu jarayonda kauzatsiyalovchining ta'siri asosiyliigi bilan xarakterlanadi. Kauzativlikda o'timlilikdan farqli holatni qabul qilib, uni o'zida tashuvchi patsiensgina bo'lmay, balki unda muayyan holatning yuzaga kelishida patsiensga faol ta'sir qiluvchi, uni ta'sirlantiruvchi subyekt (agens), uning faoliyati katta ahamiyat kasb etadi. Bunday hollarda kauzator faqat faol ta'sir qiluvchi bo'lib qolmasdan, patsiensda, unga xos belgi - xususiyatlarda holat o'zgarishining yuzaga kelishiga undaydi, imkoniyat yaratadi[5]. Patsiensning kauzator ta'sirida holatga o'tishida subyektning faolligi birinchi darajali hisoblanadi. Patsiens esa holatni o'ziga qabul qiluvchi, ta'sirlanuvchi passiv elementga aylanadi. Ammo u ta'sirlanuvchi sifatidagina passiv. Kauzativ akt yuz bergandan, patsiens holatlashgandan, natija akti aniq yuzaga kelgandan so'ng kauzatsiya obyektini passivlik doirasidan chiqib, nisbiy mustaqillikka, faollikka o'tadi. Bunday hollarda kauzatsiya obyektining faol bo'lishi, mustaqilligi kauzativ munosabatni, natija aktini o'zida to'plovchi va bevosita ifodalovchi yagona predmet ekanligi bilan izohlanadi.

Kauzativ fe'lli sintaktik konstruksiyada mantiqiy subyekt ta'sir qiluvchi bo'lsa, mantiqiy obyekt ham ta'sirlanuvchi - holatga ega bo'luvchi, ham natija aktini ifodalovchi natija subyektini bo'lib kuzatiladi. Bunda kauzatsiya agensi ta'sirining obyektini kauzativ munosabatni bildiruvchi subyektga (predmetga) aylanadi[6]. Shunga ko'ra kauzatsiya obyektini kauzativ konstruksiyada natija aktini ifodalashda faol kuch, ikki tomonlama xususiyatga ega predmet, natija akti, kauzatsiya subyektini ta'sirining tugallangan nuqtasi va shu ta'sirning natijasi sifatida yuzaga kelgan holatning informatori bo'lib kuzatiladi.

Kauzativ konstruksiyada subyektning obyektida natija aktini yuzaga keltirishi uning istagi, mayli, xohishi - faktitivlik (ruhiy faktor sifatida) asosida yoki ekstralingvistik faktorlar ta'sirida sodir bo'ladi. Obyektning subyekt ta'sirida holatli bo'lishi natija bo'lsa, subyektning faolligi (faktitivlik), obyektga ta'siri va ekstralingvistik faktorlar ta'siri kabilar sababdir.

Semantik kauzativli holat fe'llari kauzativ munosabat nuqtayi nazaridan gapda natija aktini ifodalovchi nutq birligi sifatida qatnashadi. Ular sabab va natija o'zaro dialektik bog'liqligini ko'rsatadi. Semantik kauzativda natija ko'rsatkichi bilan implikasiya vositasi

kauzativ ma'noli holat fe'llarida jamlanadi. Holat fe'llaridagi semantik kauzativda kauzativ munosabat bir ma'no strukturasi doirasida bo'ladi. Demak, natija akti gapdagi semantik kauzativda - holat fe'lida ifodalanadi. Natijaning yuzaga kelish sababi, kauzatsiya vositasi ko'pincha sintaktik qayd etilgan, ba'zi hollarda qayd etilmagan[7] bo'ladi. Kauzatsiya usuli alohida ifodalanmaydi, ammo u obyektiv mavjud bo'ladi. Uni o'zida tashuvchi predmetning qanday xususiyatga egaligi, nimaligi nisbatan mavhum bo'lib, uni kontekstdan umumiy tarzda, nisbiy aniqlash mumkin[8]. Bunday hollarda kauzatsiya vositasi natijani yuzaga keltiruvchi kauzator sifatida doimo aniq bo'ladi.

Gap tuzilishida diqqat, semantik ta'kid natija aktiga qaratiladi[9]. Chunki kauzativ fe'lli gapda ifodalanayotgan fikrning asosiy qismini, mohiyatini, kauzativ munosabatni anglatuvchi, uni tashuvchi sifatida gap strukturasieng zaruriy komponenti - natija akti hisoblanadi[10]. Shuning uchun ham natija elementi kauzativ holat fe'lli sintaktik birliklarda hamma vaqt qo'llanadi.

Semantik kauzativli holat fe'llari qatnashgan gaplarda holatga ega obyekt - uning nominativ ramzi sintaktik reallashgan bo'ladi. Bu obyekt aytilganidek, kauzativ ma'noli holat fe'llari ma'nosidagi zaruriy semantik komponent hisoblanadi. Shu sababli kauzativ holat fe'lli sintaktik konstruksiyada obyektning ba'zan sintaktik reallashmasligi faqat formal-grammatik jihatdan bo'ladi, semantik jihatdan esa u doimo mutlaq xarakterga egadir.

Semantik kauzativ o'zbek tilidagi "harakat natijasi", "ijro", "harakat", "obrazli", "fizilogik" va "psixik" integral semali holat fe'llarida kuzatiladi. Kauzativ ma'noli holat fe'llari gapda kesim vazifasida keladi. Asosan, ot va olmoshlarda ifodilangan kauzatsiya agensi ega, kauzatsiya patsiensi[11] vositasiz to'ldiruvchi o'rnini egallaydi. Kauzativ holat fe'lli konstruksiyalarda kauzatsiya agensi realizatorining bosh bo'lak, kauzatsiya patsiensi realizatorining ikkinchi darajali bo'lak vazifasida kelishi tipikdir[12]. Gap konstruksiyalarida kauzatsiya agensi va patsiensi sintaktik reallashgan, ba'zan sintaktik reallashmagan bo'ladi.

"Harakat natijasi" integral semali holat fe'llaridan qoplamoq, yakkalamoq, yolg'izlamoq va tamomlamoq semantik kauzativga ega. Ushbu holat fe'llari ot, sifat+la qoli pidagi yasama fe'llar sifatida voqelashadi. Shungako'raularning semantik strukturasi o'timlilik, kauzativlik hosil bo'ladi. Qoplamoq kauzativ holat fe'lining kauzatsiya agensi vazifasida modda, kauzatsiya patsiensi vazifasida havo qatlami va planeta keladi. Masalan: Birdan osmonni bulut qopladi (O'.Hoshimov). Oftob yuzini qoramtir tutun qopladi (U.Nazarov). Tamomlamoq kauzativ holat fe'lining kauzatsiya agensi shaxs, kauzatsiya patsiensi harakat bo'ladi. Masalan: Chol to'r yamashni tamomladi (O'z.xalq.ertak.). Ikkinchi sug'orishni tamomladik (Toshkent oqshomi). Yakkalamoq, yolg'izlamoq kauzativ holat fe'llarning kauzatsiya agensi ham, patsiensi ham shaxs bo'ladi. Masalan: Jamoa ishchilari ig'vogarni yakkaladilar (Toshkent oqshomi). Demak, gapda kauzatsiya agensi va patsiensi sifatida ishtirok etgan mantiqiy subyektlar sintaktik ega va to'ldiruvchi bo'laklar ma'nosining moddiy komponenti hisoblanadi.

Kauzativ ma'noli holat fe'llari "ijro holati" semantik guruhida ko'proqdir. Semantik kauzativ ma'noga ega fe'llarning bu holat fe'llarida nisbatan ko'pligi fe'l sememalarining "ijro" va "holat" semalariga egaligidan kelib chiqadi. Bunday holat "ijro" natijasi, subyekt "ijro"sining holati bo'lib kuzatiladi.

Semantik kauzativli "ijro" holati fe'llari quyidagilar: saqlamoq, asramoq, o'q'talmoq. Bu kauzativ holat fe'llarining kauzatsiya agensi shaxsda, kauzatsiya patsiensi maktub, foto, yemish kabilarda reallashadi. Masalan: Xatlarni Dilshod stol g'aladonida saqlar (U.Nazarov). U bir qizni sevib, suratini ko'krigida asragan (O.Matjon). Yana qiyoslang: Lekin bir patirni saqlaydi hanuz (G.Nurullayeva).

Kauzativ holat fe'lli gap konstruksiyasida ba'zan kauzator (agens valentligi) ham,

patsiens (obyekt valentligi) ham sintaktik reallashmaydi. Bu holda kauzatsiya agensi va patsiensning xarakteri, nimaligi kauzativ fe'l (predikat)dan, gapning umumiy mazmunidan aniqlanadi: Yigirma yil saqladim dilda (E.Vohidov). Demak, sintaktik reallashmagan kauzatsiya agensi ham, obyekt ham ongimizda shaxs sifatida gavdalanadi.

O'qalmoq kauzativ fe'li boshqa "ijro" holati fe'llaridan valentlik xususiyatiga ko'ra farqlanadi. U tilda ham, o'zicha, nutqda ham, qurshovda, obyekt bilan birga zaruriy xarakterdagi adresatga ham ega bo'ladi. Sintaktik birliklarda kauzativ fe'lining kauzatsiya agensi vazifasida shaxs, kauzatsiya patsiensi vazifasida qurol keladi: O'ttiz chog'liq soldat multiqlarini olomonga o'qtaldi (M.Ismoilov).

Semantik kauzativli "ijro" holati fe'llarida ba'zan kauzatsiya agensi sintaktik berilmaydi. Aniqrog'i, holat fe'li majhul nisbatda keladi, o'timli fe'ldan yasaladi: saqlanmoq. Bu holda, ma'lumki, diqqat - e'tibor, ta'kid asosan obyekt bilan holatga qaratiladi. Chunki, aytilganidek, maqsad obyekt va holat orasida "mutanosiblik" mavjudligini bildirishdan iborat bo'ladi. Shuning uchun ham majhul nisbatli sintaktik konstruksiyalarda obyekt va holat orasidagi dialektik munosabatni bevosita anglatuvchi lisoniy vositalargina qatnashadi. Shu sababli asosiy diqqat agens - subyektga (bajaruvchiga) emas, balki bajarilish doirasidan jarayon sifatida chiqqan, amalga oshgan natija xarakteridagi holatga qaratiladi. Bu natija akti kauzativ fe'l ma'nosini egallaydi, unda reallashadi. Demak, bunday hollarda maqsad obyekt kauzatsiya subyektiga emas, balki natija holat bo'ladi. Kauzatsiya subyektiga - agensi esa ushbu agens sintaktik ifodalangan turidan farqli holda kuchsiz darajada bo'ladi. Shunday bo'lsa ham, u mantiqan mavhum sezilib turadi[13]. Bunda natija obyektini ifoda etuvchi ot majhul nisbatdagi kauzativ fe'lining obyekt valentligini qayd etadi.

Kauzativ ma'noli holat fe'lining kauzatsiya agensi sintaktik kuzatilmagan turida fe'l ob'ekt aktanti - kauzatsiya patsiensi funksiyasida buyum va modda keladi. Masalan: Bu nodir sovg'alar hozirgi kunda O'zbekiston kino san'ati muzeyida saqlanmoqda (Toshkent haqiqati). Taxmin to'g'ri chiqdi - bunda zahar saqlanarkan (Mirmuhsin). Bunday kauzativ holat fe'lli gap konstruksiyalarida holatning kauzatori (agens realizatori) tiklansa, u vositali to'ldiruvchi vazifasini o'tashi ma'lum.

Semantik kauzativli holat fe'llari "harakatning holati" semantik guruhida sanoqlidir. Shu xarakterliki, bu tipda nutq fakti sifatidaholat fe'li funksiyasidaharakat ma'noli cho'zmoq so'zi qo'llanadi. Harakat fe'lining holat ma'nosida kelishi vaqtincha, ya'ni nutq faoliyati bilan bog'liq okkazional hodisa. Harakat fe'lining nutqda holat fe'li vazifasida kelishi shu fe'l bevosita aloqada bo'lgan, uni o'ragan sintaktik qurshovga bog'liq.

Cho'zmoq o'timli (obyektli) fe'l bo'lib, undagi harakat prepozitsiyadagi so'zda reallashgan obyektga to'la o'tadi. Harakat o'tgan obyektga ifodalovchi so'z harakat, "ijro" ifodasiga ega bo'lib, cho'zmoq so'zida shu "harakatning holati" qayd etiladi: Shuning uchun ham tergovni ataylab cho'zdi (H.G'ulom). Cho'zmoq fe'lining holat ifodalashi uning tergov so'zi bilan bog'lanishidan, obyektli birikmani tuzishidan, nutq birliklarining o'zaro semantik va formal - sintaktik aloqasidan kelib chiqadigan nutq hodisasidir. Kauzativ ma'noli cho'zmoq fe'li kauzator - agens ta'sirida obyektga kuzatilgan natija aktini bildiradi. Natija kauzativ munosabatning zaruriy davomi sifatida yuzaga keladi. Kauzatsiya agensi gapda sintaktik reallashmagan bo'lsa ham, u mantiqan shaxs ma'noli so'z bilan bog'lanadi.

"Harakatning holati" fe'llarida ham kauzatsiya agensi nutqiy qayd etilmaganda, kauzativ fe'l majhul nisbat ko'rsatkichi bilan reallashadi. Kauzatsiya patsiensi sifatida fikr ifodalash birligi keladi: Gap ancha cho'ziladi (O.Muxtorov).

"Obrazli" integral semali holat fe'llaridagi kauzativ ma'noli fe'l yasama bo'lib, u muayyan formant yordamida otdan hosil bo'ladi. Ot yasama fe'l uchun motivlovchi vazifani bajaradi. Motivlovchi so'z ma'nosida holat ma'nosining, fe'lga xos xususiyatning,

kauzativlikning yuzaga kelishi bevosita motivlovchi bilan motivlanuvchi orasidagi semantik aloqadan hosil bo'ladi. Bunda motivlanuvchi holat ma'nosinigina ifodalamasdan, o'timlilikni, kauzativlikni ham bildiradi. Bu fe'l birgina juft fe'lidir: ko'z - ko'zlamok.

Kauzativ holat fe'lining kauzatsiya agensi pozitsiyasida o'simlik, kauzatsiya patsiensi pozitsiyasida go'zallik keladi: ...bog'larda atirgullar ochilib, ranglar nafosatini ko'z-ko'zlaydi (M.Ismoilov).

Semantik kauzativ chimirmok va yoshlamok kabi "fiziologik" integral semali holat fe'llarida ham kuzatiladi. Bu holat fe'llarining kauzatsiya agensi shaxs, kauzatsiya obyekt kishi a'zosi bo'ladi.

Chimirmok va yoshlamok holat fe'lli kauzativ konstruksiyalarning xarakterli xususiyati shundaki, kauzativ munosabat kauzatsiya agensining o'zida yuz beradi. Kauzatsiya agensi ham, patsiensi ham shaxsning o'zi bo'ladi. Aniqrog'i, kauzatsiya agensining ta'siri uning o'ziga o'tadi. Agens ta'siridagi obyekt, holatli obyekt agensning - shaxsning ko'z, qosh kabi a'zolari bo'ladi. Demak, agens - shaxs ham ta'sir qiluvchi, ham ta'sirlanuvchi, ham aktiv faoliyat egasi, ham passiv qabul qiluvchi, "fiziologik" holat o'zgarishini o'zida aks ettiruvchi bo'lib reallashadi.

Chimirmok fe'lida holat jarayoni prepozitsiyadagi kishi a'zosining harakati natijasida yuzaga keladi. Bunday hollarda "fiziologik" holat agensning - shaxsning muayyan tashqi hodisaga nisbatan salbiy munosabati bo'ladi. Chimirmok leksemasi prepozitsiyadagi qosh leksemasi bilan obyektli munosabatga kirishadi. Kauzativ konstruksiyada kishi a'zosi harakatining holati bo'lib kuzatiluvchi natija akti ifodalanadi: Muattar qoshini chimirdi (O.Muxtorov).

Yoshlamok kauzativ fe'li otga -la formantining qo'shilishidan yasaladi. Shunga ko'ra uning sememasida "holat" semasi hosil bo'ladi. Kauzativ fe'l sememasi prepozitsiyadagi ko'z so'zi sememasi bilan muayyan semantik sintagmani tuzib, u (fe'l) kishi a'zosining holatini anglatadi: Men ko'zimni yoshladim (Balogardon).

"Psixik" integral semali holat fe'llaridagi semantik kauzativli fe'llar o'rtamok va chulg'amok. Sintaktik konstruksiyalarda kauzativ holat fe'llarining kauzatsiya agensi pozitsiyasida ovoz, dovrug' va ruhiy holat ma'noli so'zlar keladi, kauzatsiya patsiensi pozitsiyasida inson a'zosi va shaxs ma'noli so'zlar keladi. Masalan: Qalbimni o'rtadi allaqanday sas (A.Oripov). Ostingdayuz alvon o'ynaydi oting, Dushmanni o'rtaydi sha'ni - shavkating (Alpomish). Uning o'zini qandaydir hadik chulg'adi (H.Nazir). Yo'lovchilarni qandaydir qo'rquv chulg'adi (A.Ibrohimov).

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, aytish mumkinki, o'timli holat fe'llarining (umuman, o'timli fe'llarning) asosiy qismi ma'nosida kauzativ munosabat ifoda etiladi[14]. Aniqrog'i, yuqorida tahlil obyekt bo'lgan til birligi xarakteridagi semantik o'timlilikka ega 18 ta holat fe'lidan 13 tasi kauzativ ma'nolidir. Qiyoslang: o'timli - kauzativ ma'noli holat fe'llari: qoplamoq, tamomlamok, yakkalamok, yolg'izlamok, o'qtalamok, saqlamoq, asramok, panalamok, ko'z-ko'zlamok, chimirmok, yoshlamok, o'rtamok, chulg'amok. O'timli - nokauzativ ma'noli holat fe'llari: qo'riqlamoq, poylamok, o'rganmok, qo'msamok, qizg'anmok. Demak, manbalarda haqli ravishda ta'kidlanganidek, "o'timli tub fe'llar bilan kauzativ tub fe'llar (holat fe'llari - R.R.) obyekt valentligiga egaligiga ko'ra bir xil, lekin kauzativ tub fe'llar bir predikatsiyada ikki propozitsiyani yuzaga keltirishi bilan boshqa o'timli tub fe'llardan farq qiladi"[15]. Shunga ko'ra tilshunos G.A.Zolotovaning quyidagi fikri ahamiyatlidir, "Morfologiya va semantikada ishlanayotgan kauzatsiya tushunchasi sintaktik hodisalar bilan munosabatiga ko'ra katta tushuntirib berish kuchini o'zida yashiradi"[16].

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, bizningcha, o'timli - kauzativ ma'noli fe'llarda kauzativ munosabat reallashish darajasiga - maksimal yoki minimalligiga (aktiv yoki passivligiga) ko'ra o'zaro farqlanishi lozim. Aytmoqchimizki, yuqorida keltirilgan 13 ta

holat fe'lida kauzativ munosabat ifoda etilish darajasiga ko'ra binar xarakterga ega. Aniqrog'i, qoplamog, tamomlamog, yakkalamog, yolg'izlamog, panalamog, o'qalmog, chimirmog, yoshlamog fe'llarida kauzativ munosabat faolrog, kuchlirog. Saqlamog, asramog, ko'z-ko'zlamog, o'rtamog, chulg'amog kabi kauzativ fe'llarda esa kauzativ munosabat avvalgilariga qiyosan passivrog, "yopiqrog" holda ifodalanadi.

Ayni vaqtda semantik kauzativli holat fe'llarida (umuman, semantik kauzativli fe'llarda) kauzativ munosabat reallashishiga ko'ra qay darajada bo'lmasin, u hamma vaqt morfologik kauzativga nisbatan - unda kauzativ munosabatining reallashish darajasiga nisbatan kuchsizrog, passivrog bo'ladi.

Morfologik kauzativda - kauzativ nisbat ta'sirida yuzaga keluvchi sabab - natija ma'nosi semantik kauzativga nisbatan aniq, yaqqol anglashiladi. Morfologik kauzativda kauzativ munosabatning aktivligi bevosita kauzativ orttirma nisbat ta'siridan yuzaga keladiki, bu haqda "Morfologik kauzativ" bahsida fikr yuritdik.

Morfologik kauzativ. Morfologik kauzativ fe'l kategoriyasida, uning semantik maydonini hosil qiluvchi barcha leksik - semantik guruhlarida kuzatiladi. Holat fe'llarida kauzativ munosabatning morfologik ifodalanishi o'ziga xos xarakterga ega. Kauzativ munosabatning affiksali yuzaga kelishida fe'lning orttirma nisbat formantlari asosiy sanaladi. Ular kauzativ formant sifatida alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki holat fe'llariga orttirma nisbat - kauzativ nisbat[17] formantining qo'shilishi mantiqiy, zaruriy ravishda fe'l ma'nosida ham o'zgarish bo'lishiga - o'timlilik, kauzativlikning yuzaga kelishiga olib keladi.

Holat fe'llarida kauzativ ma'noni hosil qiluvchi orttirma nisbat formantlari asosan o'timsiz holat fe'llariga qo'shilishi bilan xarakterlanadi. Orttirma nisbat affiksining o'timsiz holat fe'llariga qo'shilishi, fe'l ma'nosida sabab - natija munosabatini, "kauzatsiya" semasini yuzaga keltiradi. Fe'l orttirma nisbat formasining yasaliishi bilan kauzatsiya vositasi (agensi) hosil bo'ladi. O'timsiz holat fe'llariga orttirma nisbat formantining birikishidan yuzaga kelgan kauzativda kauzator - agensning obyektga bo'lgan bevosita ta'siri ifodalanadi[18]. Demak, patsiendsda kuzatilgan o'zgarishlarning (masalan, holatning) asosiy, birlamchi manbai bo'lib, kauzator ta'siri, harakati hisoblanadi. Bu kauzatsiya tipiga ko'ra faktitiv kauzatsiya[19] - aktiv kauzatsiya[20] sanaladi.

Kauzatorning bevosita ta'siri natijasida obyektga fe'ldagi holatning amalga oshishi kontakt kauzativdir. Demak, kontakt kauzativda patsiendsda holat o'zgarishi subyektning harakatni bajarishiga bog'liqdir, ya'ni birinchi mazmun akti ikkinchi mazmun aktini amalga oshiradi[21].

Kuzatishlar natijasiga ko'ra orttirma nisbatli holat fe'li ma'nosida natijaning paydo bo'lishi, uning ifodalanishi ushbu nisbat formanti vositasida reallashgan kauzatsiya agensining yaratiluvchi ro'lda ko'rinadi. Aytilganidek, agens patsiendsning holatli bo'lishida undagi holatning yuzaga keltiruvchisi hisoblanadi, patsiens bevosita agens ta'sirida bo'ladi. Obyektning agens ta'sirida bo'lishi harakat - aktivlik tushunchasi bilan bog'lanadi. Holat fe'llariga orttirma nisbat formantining qo'shilishi natijasida ular tilshunos H.Ne'matov ta'kidlaganidek, "aktivlik ma'nosi"[22]ga ega bo'ladi, aktiv jarayon yuzaga keladi. Holat fe'lining aktivlik ma'nosiga ega bo'lishi, orttirma nisbatda qayd etilishi nutqiy faktligi bilan ajralib turadi.

Demak, holat fe'llarining til birligi bo'lib, muayyan orttirma nisbat affiksli nutq birligiga o'tishi - fonetik tuzilishining o'zgarishi bevosita semantik o'zgarishga, holat ma'nosining nutqda aktivlik ma'nosiga ko'chishiga ham olib keladi. Aktivlik ma'nosi yetakchi bo'ladi. Ammo holat fe'lining holat ma'nosi uzual bo'lib, u butunlay yo'q bo'lmaydi, saqlanadi, potensial imkoniyatga aylanadi. Bu jarayon til va nutq orasidagi dialektik munosabatning aniq ifodasi, morfologik - semantik ko'rinishi sifatida ham alohida diqqatga sazovordir.

Holat fe'llarining orttirma nisbat formasi holatning bajaruvchisi shu so'z formasida reallashgan agensning o'zi bo'lishini aniq ifodalaydi. Bunda aniq nisbat formasi "□ bildirgan harakatning (holatning ham R.R.) kim bajarishi nazarda tutilmaydi"[23]. Orttirma nisbatda agens aktanti aniqligi, semantik xarakterdaligi bilan muhimdir. Shunga ko'ra ham morfologik kauzativli holat fe'llarida kauzativ munosabat yaqqol ifoda etiladi. Sabab-natija munosabatiga kirishgan predmetlar ongda to'liq gavdalanadi.

Morfologik kauzativli sintaktik konstruksiyada semantik ta'kid asosan natija holatga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun kauzatsiya bilan patsiens holati bir murakkab amal sifatida tasavvur qilinadi va konstruksiyada birgalikda ifodalanadi[24].

Ma'lum bo'ldiki, o'zbek tilidagi holat fe'llarining o'timsizligi nisbiy bo'lib, ularga orttirma nisbat formantining qo'shilishi, holat fe'li ma'nosida o'timlilikni yuzaga keltirib qolmasdan, balki kauzativ munosabatni ham hosil qiladi. Aytilganidek, kauzatsiya subyekti, manbai reallashadi. O'timsiz fe'llardan hosil bo'lgan kauzativ fe'llar faqat faktitiv ma'noga ega bo'ladi[25].

O'zbek tilidagi morfologik kauzativli holat fe'llarida ifodalangan holat ko'pincha shaxs, ba'zan predmet tomonidan amalga oshadi. Bu tip kauzativ holat fe'lli gaplarda ham kauzatsiya agensi va patsiensning ifodalovchisi asosan ot va olmosh bo'ladi. U ega va vositasiz to'ldiruvchi vazifasini o'taydi. Kauzatsiya agensi va patsiens gapda sintaktik reallashgan, ba'zan sintaktik reallashmagan bo'ladi.

Har bir fe'l muayyan valentlikka ega bo'lib, biror so'zni boshqaradi. Albatta, kauzativ fe'lning asosi nokauzativ - o'timsiz fe'llar ham valentlik xususiyatiga ega. O'timsiz holat fe'llari ham odatda bir necha valentlikka ega bo'la olishi bilan xarakterlanadi. Masalan, olaymoq homushlanmoq, turmoq, qolmoq.

O'timsiz holat fe'llariga orttirma nisbat formantining qo'shilishi fe'lda faqat kauzativlikni (o'timlilikni)gina hosil qilmasdan, balki to'g'ridan - to'g'ri uning valentligiga ham ta'sir qiladi. Kauzativ holat fe'llaridagi valentlik miqdor jihatdan bitta ortadi. Holat fe'lining yana bir valentligi hosil bo'ladi. Demak, kauzativlik (o'timlilik) fe'l valentligini ko'paytiradi[26]. Bunday hollarda grammatik jihatdan fe'l sintaktik aktantlari ortadi, semantik jihatdan fe'l ma'nosi yana ham konkretlashadi. Agar semantik kauzativda shunday xususiyatga ega fe'l tabiatan, mohiyatiga ko'ra, faqat kauzativ munosabat nuqtai nazaridan ikki valentlikka ega bo'lsa (agens valentligi va obyekt valentligi), morfologik kauzativli holat fe'llari orttirma nisbat formanti qo'shilishidan, uning hisobiga yana bir valentlikka ega bo'ladi va bu jihatdan semantik kauzativga tenglashadi. Ularning obyekt valentligi ham yuzaga keladi.

Morfologik kauzativ o'zbek tilidagi "davomli", "harakat natijasi", "ijro", "harakat", "biologik", "fiziologik" va "psixik" integral semali holat fe'llarida kuzatiladi.

Morfologik kauzativli holat fe'llari monosillabik va polisillabik holat fe'llariga orttirma nisbat formantining qo'shilishidan yuzaga keladi. Bunda monosillabik holat fe'llariga quyidagi orttirma nisbat qo'shimchalari qo'shiladi: undosh bilan tugagan fe'l negiziga -dir, -kiz, -ir: tindirmoq, yotqizmoq, qotirmoq. Polisillabik holat fe'llariga esa quyidagi orttirma nisbat affikslari qo'shiladi: 1) unli bilan tugagan fe'l negiziga -t: muzlatmoq, qovjiratmoq, uxlatmoq, esankiratmoq, cho'chitmoq; 2) undosh bilan tugagan fe'l negiziga tir: kuchaytirmoq, taajjublantirmoq, pasaytirmoq, sarg'aytirmoq[27]. Morfologik kauzativli holat fe'llari gapda kesim vazifasini bajaradi.

Morfologik kauzativli holat fe'llari "davomli" integral semali holat fe'llari semantik guruhida kam uchraydi: yotqizmoq, qoldirmoq. Ushbu holat fe'llarida kauzativ munosabatning kauzatsiya agensi shaxs, patsiens shaxs va buyum bo'ladi. Masalan: U qizchasini kasalxonaga yotqizdi (Toshkent haqiqati). Bir yodgorlik qoldirdi ajdod nasliga (B.Boyqobilov).

"Harakat natijasi" bo'lgan holat fe'llarining semantik guruhida morfologik kauzativli

holat fe'llarning: 1) kauzatsiya agensi (vositasi) sintaktik reallashgan va 2) kauzatsiya agensi (vositasi) sintaktik reallashmagan ko'rinishlari uchraydi.

Kauzatsiya agensi reallashmagan tipida kauzator ko'pincha sintaktik qayd etilgan, ba'zan qayd etilmagan bo'ladi. Bu holda uning mavjudligi kim yoki nima ekanligi natija holatidan, kauzativ ma'noli fe'ldan anglashilib turadi. Umuman, kauzatsiya agensi qayd etilgan tipida natija aktining yuzaga kelish sababi, kauzatsiyalovchi aniqligi bilan ajralib turadi. Patsiens holati kauzatsiya agensi ta'sirining tugallangan nuqtasi hisoblanadi. Kauzativ munosabatda sabab va natijaning joylashish tartibida, avval sababning, so'ng natijaning kelishi obyektiv fakt, qonuniyatdir.

Morfologik kauzativli "harakat natijasi" integral semali holat fe'llarining kauzatsiya agensi sintaktik reallashgan tipida o'chirmoq, tinchitmoq, ilitmoq kabi kauzativ holat fe'llarining kauzatsiya agensi vazifasida shaxs, ba'zan planeta, patsiensi vazifasida esa shaxs va modda keladi. Masalan: Dadam tutunni darrov o'chirdi (A.Qahhor). Xon o'rnidan turib, odamlarni tinchitdi (S.Yunusov). Quyosh tuproqni iltidi (H.G'ulom). Morfologik kauzativli "harakat natijasi" bo'lgan holat fe'llarining kauzatsiya agensi sintaktik reallashmagan tipi birinchisidan farq qiladi. Bunda ham birinchi tipga o'xshash natija holat mavjud. U alohida ifoda tomoniga ega. Ammo natija holatni ifoda etuvchi so'z majhul nisbatda qo'llanishi bilan ajralib turadi. Bunday hollarda asosiy diqqat - e'tibor holatni kim bajarganligiga qaratilmasligi va bajaruvchini ko'rsatuvchi so'zning qo'llanmasligidan qat'iy nazar, aytilganidek, holatning bajaruvchisi fikran anglashilib turadi. Demak, majhul nisbat shaklida holatni yuzaga keltirgan sintaktik reallashmagan shaxs kauzativ ma'noli "harakat natijasi" bo'lgan holat fe'lida kauzatsiya agensi hisoblanadi. Diqqat patsiensi, natija holatida bo'lganligidan natijani yuzaga keltirgan kauzatsiya agensi qayd etilmaydi. Birinchi tipdan farqli u alohidanutqiy ifodagaham ega bo'lmaydi. Demak, kauzatsiya agensi sintaktik reallashmagan ushbu tipd ham kauzativ munosabat ifodalanadi.

Kauzatsiya agensi sintaktik reallashmagan "harakat natijasi" bo'lgan holat fe'llari - il formanti bilan yasaladi: to'ldirilmoq, tugatilmoq, bo'shatilmoq, quritilmoq. Ular gapda kesim vazifasida keladi, kauzatsiya patsiensi realizatori esa ega[28] bo'ladi.

Kauzatsiya agensi sintaktik reallashmagan "harakat natijasi" bo'lgan holat fe'llarining kauzatsiya patsiensi pozitsiyasida tobelik va shaxs kabilar keladi. Masalan: Afrika mamlakatlarida qullik tugatiladi (Toshkent haqiqati). U murabbiylikdan bo'shatildi (A.Qahhor).

Ushbu sintaktik konstruksiyalarda "harakat natijasi" bo'lgan holat fe'llari o'timli (kauzativli) formada, ya'ni ortirma nisbatda majhul nisbat formantisiz berilishi mumkin. Masalan, oxirgi holat fe'lli sintaktik konstruksiyada fe'l ma'nosidagi holat kauzativ fe'lida ifodalanadi. U (holat) gapga formal - sintaktik kiritish mumkin bo'lgan obyekt aktantiga bog'lanadi. Obyektning realizatori vazifasiga bunday hollarda ega (u) o'tib, tushum kelishigi affiksi bilan shakllanib, fe'ldagi holatni "oladi" va natijani bildiradi. Ega (u) o'rniga mantiqan mavjud, ammo tovush ifodasiga ega bo'lmagan agens - uning realizatori keltiriladi, gapga kiritiladi. Bu sintaktik ega bo'lib, kauzativ munosabatning agensini - sabab vositasini ifoda etadi. Bunda kauzativ munosabat ortirma nisbat formantidagi holat fe'lida ifodalanadi. Demak, bu holda kauzator sintaktik reallashishi bilan xarakterlanadi. Qiyoslang:

U murabbiylikdan bo'shatildi.

U murabbiylikdan uni bo'shatdi.

Bu kauzativ fe'lli gap konstruksiyalarida birgalikda, qiyosan olganda ikkita ega, ikkita to'ldiruvchi, kesim qatnashadi. Bunday statistik-sintaktik muvofiqlik asosida jiddiy semantik farq mavjud. Shuni aytish kerakki, qiyoslanayotgan nutq birliklarida semantik va grammatik o'xshashlik chiqish kelishigi formantli (formal bir xil) so'z - vositali

to'ldiruvchilarda hamda nisbat farqiga ega holat fe'llari - kesimlarda ko'rinadi. Demak, bularda ham semantik, ham grammatik umumiylik bor. Shuningdek, grammatik bir xillik kauzativ konstruksiyalardagi bosh bo'laklarda (egalarda) ham yaqqol ko'rinib turibdi. Ammo kauzativ munosabat nuqtai nazaridan birinchi kauzativ konstruksiyadagi ega - uchinchi shaxs semantik jihatdan kauzatsiya patsiensi, kauzatsiyalanuvchi, gapdagi fikr mohiyatini o'zida to'plovchi, obyekt bo'lsa, ikkinchi kauzativ konstruksiyadagi ega - uchinchi shaxs esa semantik jihatdan subyekt - agens hisoblanadi. Bu o'rinda sintaktik kategoriya bilan semantik kategoriya teng keladi, o'zaro muvofiqlikni hosil qiladi. Kauzativ munosabat nuqtai nazaridan esa semantik - sintaktik operator kauzatsiya agensi (kauzatsiyalovchi) sanaladi. Kauzatsiya agensining ta'siri (harakati) esa gapda sintaktik qayd etilgan patsiensa (semantik obyekt, sintaktik to'ldiruvchiga) o'tadi, u holatlashadi. Ma'lum bo'ldiki, keyingi kauzativ konstruksiya avvalgisidan kauzatsiya agensining mavjudligi - uning alohida lisoniy ifodaga egaligi bilan, shuningdek, kauzatsiya patsiensi ham sintaktik berilganligi bilan farqlanadi.

"Harakat natijasi" bo'lgan holat fe'llariga orttirma nisbat formantidan so'ng ba'zan birgalik nisbati affiksi ham qo'shiladi: o'chirishmoq. Bunda ham "harakat natijasi" bo'lgan holat fe'li kauzativ ma'noli fe'l sifatida o'z agensi va patsiensiga ega bo'ladi. Kauzativ fe'l birgalik nisbatida reallashishiga ko'ra kauzatsiya agensining birdan ortiqqligi anglashiladi. Bunda gapdagi kauzativ fe'l agensining realizatori ko'plik shaklida kelib, shaxs, patsiens realizatori yong'in ma'nosini beradi: Odamlar alangaga ko'rpa, sholcha yopib, (alangani - R.R.) zo'rg'a o'chirishibdi (A.Qahhor).

Morfologik kauzativli fe'llar "ijro" integral semali holat fe'llarida sanoqli: salqinlatmoq. Kauzativ fe'li gapda kauzatsiya agensi ham, patsiensi ham shaxs bo'lib keladi: Chol o'z bolalarini salqinlatibdi (O'zb.xalq.ertak).

"Harakatning holati" fe'llaridagi kauzativ fe'l susaytirmoq. Ushbu kauzativ fe'lning xarakterli xususiyati kauzatsiya agensini anglatuvchi so'zning "harakat" semasiga ham egaligidir. U ovoz harakati izohida keladi. Fe'lda qayd etilgan holat patsiens realizatoridagi qimirlash harakatining holat belgisi bo'lib voqelashadi: Bu tovush bemorning harakatini susaytiradi (N.Normatov).

"Biologik" integral semali holat fe'llaridagi morfologik kauzativ ma'noli fe'llari quyidagilar: o'ldirmoq, so'ldirmoq. Ayni fe'llarda kauzativ munosabatning ifodalanishida kauzatsiya agensi shaxs, kauzatsiya patsiensi shaxs va o'simlik bo'ladi: Uni fashist otib olib o'ldirgan (H.Nazir). Mo'min Mirzo, ukam, seni o'ldirdilar (A.Oripov). Qizil gulni xazon qilib so'ldirar (F.Yo'ldosh).

Kauzativ ma'noli "biologik" holat fe'llarida ba'zan kauzatsiya agensining realizatori vazifasidagi sifatdash otlashadi, uning ma'no doirasi kengayadi, u shaxsni anglatadi. Patsiens ham shaxs bo'ladi: Meni o'ldirdilar Shohimardonda yurtimning qonini tekin so'rganlar (A.Oripov).

"Fiziologik" integral semali holat fe'llarida morfologik kauzativli fe'llar nisbatan ko'p uchraydi. Ularda reallashgan holat kauzatsiya agensining ta'siridan organizmda yuzaga kelgan holat o'zgarishi - natija holat sifatida kuzatiladi. Organizmdagi o'zgarish tashqi va ichki jismoniy o'zgarishlarni, "fiziologik" jarayonlarni o'z ichiga oladi.

"Fiziologik" holat fe'llarida kauzativ munosabatning ifodalanishi o'ziga xosdir. Bunday kauzativ fe'llarni kauzativ munosabat ifodalashiga, natija holatning qanday kauzatsiya agensi ta'sirida yuzaga kelishiga, ya'ni kauzatsiyalovchining mohiyatiga ko'ra ikkiga ajratish mumkin: 1) "fiziologik" holatning kauzatsiya agensining (shaxsning) - undagi faktitivlik yoki muayyan a'zoning harakati natijasida yuzaga kelishi; 2) "fiziologik" holatning kauzatsiya agensida - shaxs organizmda (ekstralingvistik) faktorlar ta'sirida yuzaga kelishi.

"Fiziologik" holatning kauzatsiya agensining, shaxsning - undagi faktitivlik yoki

muayyan a'zoning harakati natijasida sodir bo'lishida holat shaxs a'zosining holati bilan bog'lanadi. Shaxsning o'zi esa organizmning biror qismida holatni (natija sifatida) yuzaga keltiruvchi, agens hisoblanadi. Bunda sabab-natija akti shaxs organizmida kuzatiladi. Shaxsning o'ziga o'zi ta'sir qiluvchiga - kauzatorga aylanishida undagi mayl, istak, xohish kabi ruhiy faktorlar organizmda holatning voqe bo'lishida, shaxsni shunga undashda yetakchi rol o'ynaydi.

Birinchi tipdagi ifodalangan holat prepozitsiyadagi so'zda ifodalangan kishi a'zosining holati bo'lib, uning harakati natijasida sodir bo'ladi. Bunda obyektning o'z a'zosiga ta'siri, uni harakatga keltirishi sabab, kishi a'zosining muayyan jismoniy holatga o'tishi natija hisoblanadi.

Demak, kauzator kauzatsiya agensi bo'lishidan tashqari, kauzatsiya patsiensi (obyekti) sifatida ham kuzatiladi [29]. Bu kauzatorning kauzatsiya patsiensi ham bo'lish imkoniga egaligidan kelib chiqadi. Chaqchaytirmoq, burishtirmoq, tirishtirmoq kabi kauzativ holat fe'lli sintaktik konstruksiyalarda kauzatsiya agensi bo'lib shaxs, patsiensi bo'lib uning a'zosi kuzatiladi. Masalan: Yigit ko'zlarini chaqchaytirdi (O'zb. xalq ertak.). O'zini oynaga solib, basharasini burishtirdi (S.Ahmad). Bola peshanasini tirishtirdi (Guliston).

Chaqchaytirmoq, dikkaytirmoq, hurpaytirmoq kabi kauzativ holat fe'llari hayvon bilan bog'liq "fiziologik" holatni ham ifodalaydi. Jismoniy holat hayvon a'zosining harakati natijasida sodir bo'ladi. Kauzatsiya agensi vazifasida hayvon, patsiensi vazifasida uning muayyan a'zosi keladi. Masalan: Boyqushlar ko'zlarini chaqchaytiribdi (O'zbek xalq ertak.). It quloqlarini dikkaytiribdi (O'zbek xalq ertak.). To'satdan paydo bo'lgan beshta odamni ko'rib, xo'roz patlarini xo'rpaytiribdi (S.Yunusov).

"Fiziologik" holatning kauzatsiya agensida - shaxs organizmida tashqi faktorlar ta'sirida yuzaga kelishida kauzatsiya patsiensi avvalgi tipdan farqli alohida, mustaqil kauzatsiya agensi ta'sirida bo'ladi. Shunga ko'ra unda holat o'zgarishi yuz beradi. Bunda patsiens kauzatsiya agensining "struktural komponenti" emasligi, undan butunlay boshqaligi bilan ajralib turadi. Bu holda junjitmoq, horitmoq, uxlatmoq kabi kauzativ fe'llarning kauzatsiya agensi havo oqimi, jism, shaxs, kauzatsiya patsiensi kishi a'zosi, hayvon va shaxs sifatida kuzatiladi. Masalan: Salqin shamol tanni junjitadi (H.G'ulom). Otimni horitar tog'larning toshi (Balogardon). U bolani uxlatibdi (O'zbek xalq ertak.).

"Psixik" integral semali holat fe'llari semantik guruhida morfologik kauzativli fe'llar nisbatan ko'p: g'azablantirmoq, dadillantirmoq, uyaltirmoq. Bu kauzativ fe'lli konstruksiyalarda kauzativ munosabatning kauzatsiya agensi o'rnida darak, jami va fikr ifodalash birligi ma'noli so'zlar, kauzatsiya patsiensi o'rnida shaxs ma'noli so'zlar keladi. Masalan: Kutilmagan xabar uni qattiq g'azablantirdi (Oybek). Buning hammasi Shayboniyxonni dadillantirdi (P.Qodirov). Bu gaplar jiddiy emas, hazil bo'lsa ham, Dilshodni juda uyaltirdi (M.Ismoilov).

Morfologik kauzativ ma'noli holat fe'llari semantik kauzativ ma'noli holat fe'llari kabi kauzativ munosabatni qay darajada ifodalashiga ko'ra ham xarakterlanadi. sintaktik birliklarda semantik kauzativli sintaktik birliklarga nisbatan ortiq darajada aniq ifodalanib turadi.

Xulosa

1. Semantik kauzativ o'zbek tilidagi holat fe'llarida o'ziga xosdir. Kauzativ munosabatning muayyan holat fe'llarida ifodalanishi kauzatsiya agensining mavjudligi, alohida tovush tomoniga egaligi bilan ahamiyatlidir.

2. Holat fe'llarining agens va obyekt aktantlari kauzativ munosabat nuqtayi nazaridan gapda markaziy o'rinni egallaydi.

3. Kauzatsiya kauzativ ma'noli holat fe'llining obyekt aktanti (patsiensi) bilan belgilanadi.

4. Morfologik kauzativli holat fe'llarida kauzativ munosabat asosan aniq, to'liq ifodalanadi.

5. Morfologik kauzativli holat fe'llarida kauzativ munosabatning aniq ifodalanishi ushbu fe'llardagi kauzativ formantning ta'siridan, uning kauzativ munosabatni aniq anglatish imkoniga egaligidan va bu nutqda leksema tipidagi o'timsiz tub holat fe'llari tomonidan "qo'llab-quvvatlanishidan", shunga ko'ra morfologik kauzativli holat fe'llarida nutqiy harakat - faollik ma'nosining hosil bo'lishidan, shuningdek, bu kauzativ holat fe'llarida kauzatsiya agensining konkret ifodalanib turishidan uning semantik aktant xarakteridan yuzaga keladi.

6. Semantik o'timli holat fe'llaridagi kauzativ ma'no uzual-til "birligi", til "fakti" sanalsa, morfologik o'timli holat fe'llaridagi kauzativ ma'no nutqiy-nutq "birligi", nutq "fakti" sifatida baholanishi lozim.

7. O'zbek tilidagi semantik va morfologik kauzativ ma'noli holat fe'llari ko'p hollarda kontakt kauzativlikni, ba'zan distant kauzativlikni qayd etish bilan ham o'ziga xos xususiyatga egadir.

8. Semantik va morfologik kauzativ ma'noli holat fe'llari tilimizning boyligini, o'ziga xos semantik imkoniyatlarga egaligini, til va nutq orasidagi dialektik munosabatni ifoda etadi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Типология каузативных конструкций. Морфологический каузатив. Л., 1969; Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М., 1966. 193-бет; Кондаков Н.И. Логический словарь. М., 1971. 211-бет.
2. Корди Е.Е. Семантическая и синтаксическая структура предложения со знаменательными каузативными глаголами и оборотами в современном французском языке. Структура и объем предложения и словосочетания в индоевропейских языках. Л., 1981. 54-55-бет. 3. Алисова Т.Б. Очерки синтаксиса современного итальянского языка. - М.; МГУ, 1971. 100-бет.
- Корди Е.Е., Бердыева Т. Морфологический каузатив в таджикском языке. Типология каузативных конструкций. Морфологический каузатив. Л., 1969. 209-бет
4. Корди Е.Е., Бердыева Т. Морфологический каузатив в таджикском языке, 209-бет. 5. Алисова Т.Б. Очерки синтаксиса современного итальянского языка. М., 1971. 38-бет. Яна қаранг: Сильницкий Г.Г. Семантические типы ситуации и семантические классы глаголов. Проблемы структурной лингвистики. М., 1973, 381-бет. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. М.-Л., 1960. 193-196 бет. Нигматов Х.Г., Цалкаламанидзе А.А. Семантико - синтаксические группы глаголов и значение залоговых аффиксов в узбекском языке. Ж. Сов. тюркология. Баку, 1979 - №3, 51-52 бет.
6. Золотова Г.А. Очерк функционального синтаксиса русского языка. М., 1973, 287-бет; Яна қаранг: Корди Е.Е. Семантическая и синтаксическая структура предложения со знаменательными каузативными глаголами и оборотами в современном французском языке. 50-55 бет. Долинина И.Б. Маркировка субъектно - объектных отношений и валентностных категорий английского глагола. Категория субъекта и объекта в языках различных типов. М., 1982. 74-75-бет.
7. Каузация воситаси (каузацияловчи) нинг каузатив конструкцияларда формал-структурал қайд этилмаслиги ҳақида яна қаранг: Недялков В.П. Сильницкий Г.Г. Типология морфологического и лексического каузативов, Типология каузативных конструкций. Морфологический каузатив. М., 1969. 7 бет. Корди Е.Е. Семантическая и синтаксическая структура предложения со знаменательными каузативными глаголами и оборотами в современном французском языке, 57-бет. Золотова Г.А. Очерк функционального синтаксиса русского языка, 294-бет.
8. Яна қаранг: Корди Е.Е. Ўша асар, 57-бет. Золотова Г.А. Ўша асар, 294 бет.
9. Қаранг: Қўчқортаев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. Т., 1977 129 бет.
10. Недялков В.П., Сильницкий Г.Г., Ўша асар, 7-бет.
11. Каузация агенси ва пациенсининг категориал ифодаланиши ҳақида қаранг: Корди Е.Е. Ўша асар, 55-бет. Золотова Г.А. Ўша асар, 292 бет.
12. Каузация агенсини ифодаловчи сўзнинг гапда иккинчи даражали бўлак, каузация пациенсини англатувчи сўзнинг бош бўлак бўлиб келиши каузатив феълнинг мажхул нисбатли формада реаллашишига кўра юз беради.
13. Ҳожиев А. Феъл. Т., 1973. 100-бет.
14. Золотова Г.А. ҳам шу фикрда. Қаранг: Золотова Г.А. Очерк функционального синтаксиса русского языка, 288-бет. А.М. Мухин монографиясида ўтимли феълларни одатда каузатив феъллар деб аталишини алоҳида таъкидлайди. Қаранг: Мухин А.М. Синтаксический анализ и проблема уровней языка. Л., 1980, 126-бет.
15. Миртожиев М. Нисбат категорияси формантлари ва улар семантикаси генезиси. Ўтимлилик ва орттирма нисбат категорияси. // Ўзбек тили ва адабиёти. № 4, 1982, 6-бет.

16.Золотова Г.А. Ўша асар, 278-бет.

17.Каузатив нисбат термини О.С.Ахманованики. Қаранг: Ахманова О.С.Словарь лингвистических терминов, 194-бет.

18.Корди Е.Е., Бердыева Т. Морфологический каузатив в таджикском языке, 218-бет. Апресян Ю.Д.Лексическая семантика. М., 1974. 72-бет. ўуломов. Феъл. Т.,1954. 63-бет

19.Недялков В.П., Сильницкий Г.Г.Типология морфологического и лексического каузативов, 28-бет. Кормушин И.В. О пассивном значении каузативных глаголов. Turcologica. К семидесятилетию акад. А.Н.Кононова. Л., 1976, 90-бет.

20.Қаранг: Корди Е.Е. Семантическая и синтаксическая структура предложения со знаменательными каузативными глаголами и оборотами в современном французском языке, 51-52-бет.

Дистант каузатив семантик ва морфологик каузатив маъноли ҳолат феълларида етакчи эмас. Семантик ва морфологик каузативли ҳолат феъллари нутқда кўпинча контакт каузатив маъноли феъллар бўлиб реаллашади. Чунки улар шундай реаллашишга хос потенциал имкониятга эгадир.

21.Миртожиев М. Нисбат категорияси формантлари ва улар семантикаси генезиси, 8-бет.

22.Нигматов Х.Г., Цалкаламанидзе А.А. Семантико - синтаксические группы глаголов и значение залоговых аффиксов в узбекском языке, 51-бет

23.Ҳожиев А.Феъл, 97-бет.

24.Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги, 129-бет.

25.Гецадзе И.О.,Недялков В.П. Морфологический каузатив в абхазском языке, Типология каузативных конструкций. Морфологический каузатив, 72-бет.

26.Гецадзе И.О., Недялков В.П. Морфологический каузатив в абхазском языке, 73-бет. Яна қаранг: Розенцвейг В.Г. Семантическая валентность слова, словообразование, синтаксис. Слово в грамматике и словаре. М., 1984, 101-бет.

27. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка, 193-196-бет; ўуломов А.ў. Феъл. Т.,1954. 63-бет; Иванов С.Н.О соотношении грамматического и лексического в узбекских залогах. Ученые записки ЛГУ. 294, сер. Востоковедческих наук. Вып. 12. Л., 1961, 7-бет; Щербак А.М.Очерки по сравнительной морфологии тюркских языков (глагол). Л., 1981, 115-121-бет. Ҳожиев А. Феъл, 96-бет; Буранов Дж.Типологические категории и сравнительное изучение языков. АДД, М., 1979, 41-бет.

28.Қаранг: Ҳожиев А. Феъл, 100-бет; Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т.,1975. 183-бет. 29. Яна қаранг: Долинина И.Б. Структура предложения с рефлексивными конструкциями в английском языке. // Структура и объем предложения и словосочетания в индоевропейских языках. Л.,1981. 38-бет. Долинина И.Б. Маркировка субъектно-объектных отношений у валентностных категорий английского глагола, 74-75-бет.